

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI**

**XORAZM VILOYATI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**“Psixologiya, pedagogika, menejment, maktabgacha va
boshlang‘ich ta’lim” kafedrası**

**MULOQOT MADANIYATI
(metodik qo‘llanma)**



Urganch – 2013

Tuzuvchilar: **N. Maxmudova – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent**

M.Yarmanova – “Psixologiya, pedagogika, menejment,

M.Allamova maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim”

kafedrasi o‘qituvchilari.

Taqrizchilar: **M.Hajiyeva - UrDU f.f.doktori**

I.Raximova - “Psixologiya, pedagogika, menejment,

maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim”

kafedrasi katta o‘qituvchilari.

MUNDARIJA

1. Kirish	5
2. Muomala-munosabat odobi.....	7
3. Muloqotlar sermazmun bo'lsa	12
4. Yaxshi so'z- jon ozig'i	14
5. Yaxshi so'z-yaxshi-da!.....	17
6. Oila-mahalla –maktab hamjihatligi.....	18
7. Suhbat odobi.....	18
8. Yaxshi so'zning qudrati.....	22
9. Hikmatlar.....	24
10.Donolar suhbatlashish mahorati haqida.....	26
11.Donishmandlar hikmati.....	29

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

I.A.Karimov

Kirish

Muomala qila bilish qobiliyati insonlar orasida bir – birini tushunish vositasidir. Inson qancha madaniyatli bo'lsa, unda o'zgalarni tushunish darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

“Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir. Nutqni juda yaxshi va san'atkorona o'rganib ol, doimo gapga chechan bo'lishni odat qil, nutqi shirin kishining mehribonlari ham ko'p bo'ladi”, degan ekan donishmandalardan biri.

Chunki, so'z shunday qurolki, undan mohirona foydalanilsa, u mo'jizalar yaratishga qodir. So'z juda buyukdir, -degan edi L.N.Tolstoy, shuning uchun buyukki, so'z bilan kishilarni birlashtirish, yoxud ularni bir –biridan ayirib tashlash mumkin. So'z bilan mehr-muhabbat, nafrat va dushmanlik tug'ulishi mumkin. Bolalar bilan muomala qilganda ularning yoshi, o'ziga xos ruhiy holati, kayfiyati va mavjud shart-sharoitlarni hisobga olish zarur. Qiyin vaziyatlarda “Sen buni uddalay olasan!” “Sen o'zing o'ylagandan ko'ra aqlliroqsan, yaxshiroqsan!” deb bolani qo'llab-quvvatlash, unda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash lozim.

Ba'zi kishilar noto'g'ri yo'lga kirib ketayotgan bolani do'q-po'pisa, qo'rqitish bilan bu yo'ldan qaytarishni asosiy vosita deb biladilar. Ushbularni inobatga olgan holda Amerikalik psixolog Deyl Kornegining “ Ota pushaymoni “ haqidagi fikrlarini ham aytib o'tishni lozim topdik.

Eshit, o'g'lim. Men bu so'zlarni sen uxlayotgan paytda aytyapman; sen kichkina qo'lchangni yuzing ostiga qo'ygansan, jingalak malla sochlaring ho'l peshonangga yopishgan. Men bir o'zim sening xonangga yashirinchalik kirdim. Men sening karovatchang oldiga o'z aybimni tushunib keldim.

O'g'lim, men mana bular haqida o'yladim: men yomon kayfiyatim alamini senga sochdim. Sen maktabga ketish uchun kiyinayotganingda ho'l sochiqni yuzingga endi tekkizganingda koyib berdim. Botinkangni tozalamaganing uchun men senga nasihat o'qidim. Kiyimingdan nimanidir tushurib yuborganingda senga g'azab bilan baqirdim.

Sening jajji yuraging shunchalar buyukki, xuddi olis tepaliklar ustidagi tong kabi. Men sening karavotchang oldiga qorong'ida va xijolat keldim, sening oldingda bosh egib turibman.

Bu asossiz o'zini oqlash. Men bilaman, agar uyg'onganingdan so'ng senga ularning hammasini aytsam, bu narsalarni tushunmagan bo'lar eding. Ammo ertaga men haqiqiy ota bo'laman.

Bunday muomala qilganda bola kattalar bilan yaqin munosabatda bo'lishni istamay qoladi. Ota – onaning so'zi bolaning qalbiga ta'sir qiluvchi eng nozik vositadir. Bolaning hatti – harakatini har tomonlama tahlil qilishni istamaslik, uning yoshini hisobga olmaslik, nutq madaniyatini buzish bu ota – onalar tomonidan yo'l qo'yiladigan eng jiddiy xatolardir.

Muomala-munosabat odobi

Hayotda insonlar hamisha bir-birlari bilan muomala-munosabatda bo'ladilar. Birgalashib ish bitiradilar.

Muomala-munosabat odamlarni bir-birlariga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, do'stlik-birodarlik, mehr-oqibat iplarini mustahkamlovchi, kishini katta-katta xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Muomala-munosabat orqali insonning aql-zakovati, fahm-farosati, ota-onasi qanday kishilar ekanligi, hamda, u o'zi qanaqa tarbiya olganligi namayon bo'ladi.

Xushmuomalalik, xushtabiatlik, kishilarga hamisha xushnudlik, obro'-e'tibor, baxt-saodat, huzur - halovat bag'ishlaydi. „Dono topib gapirar”,-deganday, o'z fikrini ma'noli, kishiga og'ir botmaydigan so'zlar bilan ifodalash ham donolik, ham odoblilik namunasidir.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bu haqda mulohaza yuritib, so'z bilan odamning tanasiga pok ruh bag'ishlash va aksincha, so'z bilan tanadagi ruhni halok etish mumkin, -deydi. Shu bilan birga, „Mahbub-ul-qulub” asarida:

Oldiga kelganni yemak
hayvonning ishi,
Og'ziga kelganni demak
nodonning ishi,-

Navoiy odamlarni shoshmasdan, o'ylab gapirishga chaqiradi.

Alisher Navoiyning muomala-munosabat odobi haqidagi har bir so'zi chuqur mazmunga ega.

Xalqimizda bir maqol bor: “Boshingga qilich kelsa ham rost gapir”. Navoiy avvalo o'z zamonasida rostgo'ylikni qattiq turib himoya qildi. Xususan, o'zining „Hayratul-abror” dostonida shu mavzuga doir „Rostlik ta'rifida...” degan maxsus bob ham ajratgan. Bunda shoir chin so'zlashga ilojisiz qolsang, indamay qo'ya qol, lekin hech qachon yolg'on gapirma, deydi.

Necha zarurat aro
Qolg'on chog'i

Chin demas ersang,

Dema yolg'on dog'i.

Haqiqatni buzib gapirish shunday illatki, unga o'rganib qolish odamning obro'sini to'kadi, o'zini esa xor-zorlikka mahkum etadi.

Har tomonlama o'ylab gapirish insonning donoligidan, aql-zakovatidan dalolat beradi. Safsatabozlikni, mantiqsiz fikrlarni Navoiy ham yoqtirmagan. U o'zining shu dostonidagi o'gitlaridan birida shunday deydi:

Yana bukim yaxshi, yomon

dema so'z

El yomonu, yaxshisiga

solma ko'z.

Ma'lum bo'ladiki, Navoiy odamlarni birovlarining har qanday huda-behuda gaplariga quloq tutavermaslikka, shu bilan birga, hammadan ayb qidirmaslikka da'vat etadi.

Xalqimizda „Iydirgan ham til, bezdirgan ham til“ „O'ylamay gapirgan og'rimay o'lar“ „Aytgan so'z- otilgan o'q“, „Oz gapirgan-oz yanglishadi“, „Befoyda gapni ko'p aytma, foydali gapni eshitishdan hech qaytma“, „Aytganing kumush bo'lsa, sukunat saqlaganing oltindir“ degan naqlar bor. Bu hikmatlardan quyidagi ma'nolarni uqib olish mumkin: Birovgacha bir gap aytmoqchi bo'lsang, avval uni yaxshigilab o'ylab, chamalab ko'r. Shu gapni birov menga aytdi, deb faraz qilgin. O'ylamay, jaholat ustida birovga qattiq gap aytib, dilini og'ritib, keyin pushaymonda bo'lib yurma. Aytgan gap- otilgan o'q. O'ylamay so'zlasang xijolatda qolasan, odamlarni sendan ixlosi qaytadi. Yaxshisi sukunat saqlagil, gapni dilingda pishitmasdan tilingga chiqarma. Dilozorlik kishiga xo'rlik, alam-sitam yetkazadi. Chunki, kishining og'zidan chiqqan har bir so'z, xoh yaxshi-yu, xoh yomon, xoh o'rinli-yu, xoh o'rinsiz bo'lsin, uni aslo qaytarib bo'lmaydi. Aytgan so'z

(ayniqsa, haqorat, piching, kesatish, mazax, kamsitish, tuxmay, g'iybat, chaqmachaqarlik, maqtancholik, xushomadgo'ylik va hakoza) atrofdagi kishilar tomonidan mazkur so'z egasiga (achchiq so'z bilan yohud jismoniy zarba bilan) qaytariladigan javobning sababchisi bo'ladi. „Og'izdan chiqqan so'z qaytmas“, „Gap

egasi bilan yurmaydi”, “Saqlangan so‘z-sof oltin”, “Aytmasdan burun so‘zga sen ega, aytgandan so‘ng senga so‘z ega”, “Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”, “Arzimagan gap og‘izda qolsin”.

“Aytishsang so‘z chiqadi, turtishsang ko‘z chiqadi”. Kishilar bir-birlari bilan so‘z talashganda ikki taraf ham o‘ziga loyiq so‘z topa oladi.. Natijada gapdan-gap chiqib, janjalga aylanib ketishi mumkin. Shuningdek, kishi bir-biri bilan turtishsa (garchi u hazil bo‘lsa ham) oxiri borib chinga aylanishi, urishishga, mushtlashishga olib kelishi mumkin.

Odamlar bilan muomala- munosabatda til odobiga amal qilish nechog‘lik zarurligi haqida aytilgan xalq pandnomalari, rivoyat, hikoyat hamda hikmatlari mavjud.

Insonga so‘zdan ortiq ta’sir qiladigan vosita yo‘q. Siz birovlariga so‘z orqali ta’sir qilib, uni ko‘ndirishingiz yoki yig‘laishingiz, unda yashashga, hayotga ishtiyoq uyg‘oyishingiz yoki bu ishtiyoqni so‘ndirishingiz, uni o‘zingizga do‘st etishingiz yoki raqibga aylantirishingiz mumkin. Lekin, afsuski, so‘zning bu qudratli kuchiga hamma ham yetarli e’tibor beravermaydi. Bu sohadagi ayrim kamchiliklarga qarataylik.

Birinchi holat. Ayrim ota-onalar o‘z bolalariga, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarga, o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilariga ta’sir ko‘rsatish maqsadida so‘zdan ko‘ra biror chora-tadbir qo‘llashni ma’qul ko‘radilar. Masalan, bola ko‘chada uzoqroq o‘ynab qolsa yoki biror bola bilan urishsa, yohud kiyimlarini kir qilib qaytsa, ona yoki ota bolasini ko‘chaga boshqa chiqarmaslikka harakar qiladi; o‘quvchi dars paytida sho‘xlik qilsa, o‘qituvchi uni bir soat tikka turg‘zaib qo‘yadi.. To‘g‘ri, insonga ta’sir qilishning vosita va usullari ko‘p. Yuqorida biz sanab o‘tgan chora-tadbirlar ham natija berishi mumkin. Ammo ikki og‘iz so‘z ta’siriga teng keladigan boshqa biror ta’sirni topish qiyin. Ba’zan mana shu ikki og‘iz gapni o‘ylab topolmaymiz., o‘ylab topsak, me’yori bilan aytolmaymiz, ko‘pincha buni arzimagan narsa deb o‘ylaymiz, natijada, fikriy qashshoqligimiz ortaveradi, nutq madaniyatimiz pasayaveradi.

Ikkinchi holat. Ayrim ota-onalar, tarbiyachilar, o‘qituvchilar so‘zning ta’sir kuchiga ishonadilar, boshqa chora-tadbirdan ko‘ra so‘z bilan ta’sir qilishga urinadilar. Ammo ularning harakatlari ko‘pincha zoye ketadi, ba’zan esa teskari oqibatga olib keladi. Nega shunday bo‘ladi? Kimga nima deyish kerakligini puxta o‘ylab ko‘rmadan,

qaysi soʻzga qanday ohang berish kerakligi haqida bosh qotirmasdan ogʻziga kelganini aytib yuboraverish, qichqiriq- baqiriqlar bilan, oʻrinli-oʻrinsiz kinoyalar bilan, tanbeh-nadomatlar bilan, doʻq-poʻpisalar bilan tarbiyaviy taʻsir koʻrsataman, deb oʻylash mutlaqo notoʻgʻridir.

Sinfda 30 ta oʻquvchi oʻtiribdi, deb faraz qilaylik. Goʻyo ular hammasi bir xildek-yoshi, boʻy-basti, bilimi... ammo oʻqituvchi tomonidan aytilgan bir ogʻiz soʻz ularning 30 tasiga 30 xil taʻsir qilishi mumkin. Negaki, ularning vujudida oʻttiz xil tarbiya izlari oʻrnashgan, ularda oʻttiz xil xarakter shakllanmoqda. Demak oʻqituvchi, avvalo, ularning har qaysisiga oʻziga xos gap aytishi, agar hammasiga qarata gapirmoqchi boʻlsa, mazmuni umumiy boʻlgan, taʻsir kuchi bir xil tarqaladigan soʻzlar topishi, uni samimiyat bilan, begʻaraz, chin yurakdan ifodalashi kerak.

Oʻqituvchining eng muhim xususiyati oʻquvchilarga nisbatan muloyim, taʻsirchan shuningdek, nihoyatda toʻgʻri va haqqoniy muomalada boʻla olishidir. Baʼzi oʻquvchilar darsdan ulgurmayotganliklari sababli oʻz kuchlariga ishonchlarini yoʻqotish darajasiga ham borib yetadilar. Bunday holda ehtiyotsizlik bilan aytilgan bir jumla yoki oʻquvchini nohaq ayblash tarbiyaga salbiy taʻsir qiladi va bolada oʻqishga qiziqishni butunlay soʻndiradi. Masalan, bola uyda darsini tayyorlab kelgan. Yaxshimi, yomonmi, har holda harakat qilgan. Biroq, oʻqituvchi unga „notoʻgʻri ishlagansan, miyani ishlatsang boʻlmaydimi?“ deb, boshiga turtib oʻshqiradi. Bu holda oʻqituvchi boladagi oʻqishga boʻlgan havasini soʻndiradi, oqibatda bolaning oʻqituvchidan ixlosi qaytadi. Yaxshi muallim also bunday holga yoʻl qoʻymaydi. Oʻzining koʻrinishi, xush ovozi bilan bolada intilish, harakat borligini aytib ruhlantiradi va mustaqil ishidagi ayrim xatolarni bolaning oʻzi topishiga imkoniyat yaratadi.

Oʻqituvchining savollariga javob berishda oʻquvchiga xos odob saqlash, oʻz fikrini toʻplab savolga aniq, toʻla javob qaytarish, nutqida ortiqcha soʻzlarga oʻrin bermaslikka harakat qilish, oʻquvchi shaʼniga yarashmagan hatti-harakatlardan oʻzini tiyishni, barcha oʻquvchilarning doimiy ahloq normasiga aylanishini taʼminlashga intilish lozim.

Bola oʻz oʻrtoqlari bilan munosabatda hech qachon qoʻpollikka, dilozorlikka yoʻl qoʻymasin. Har bir ishda bir-birlariga yordamlashish kerakligini uqtirish, oʻzaro

gaplashganda „o‘g‘ayni“, „o‘rtoqjon“, „dugonajon“ kabi shirin so‘zlarni ishlatishga o‘rgatish har bir tarbiyachining asosiy vazifasidir.

Bolalarning o‘zaro va kattalar bilan muomalasi masalasiga ba’zi otanonalar, o‘qituvchilar yetarli e’tibor bermaydilar. Ayrim bolalar bir-birlariga laqab qo‘yadilar, yoki har xil bo‘lmag‘ur iboralar ishlatadilar. Bunday bolalar boshqa tengqurlarining tarbiyasiga va ayni chog‘da ularni ham yomon so‘zlarni ishlatishgacha majbur qiladilar. Tarbiyachi va o‘qituvchilar bu narsani e’tibordan chiqarmasligi kerak.

Bola yaxshi odatlarni, shu jumladan xushmuomalalikni otanonalari, o‘qituvchilari va kattalardan o‘rganadi. Bolada yaxshi xulq-atvorni shakllantirish uchun yaxshi ibrat zarur. Har qanday otana, o‘qituvchi, tarbiyachi tarbiyachilik burchini o‘z shaxsiy ibrati bilangina amalga oshira oladi. Quruq nasihat bolaga ta’sir qilishi qiyin.

Boshlang‘ich sinf darsliklariga e’tibor beradigan bo‘lsak, har bir berilgan mavzu o‘quvchilarni vatanga sodiq bo‘lishga, kattalarga, otanonalarga, opa-singillarimizga qanaqa muomala qilishimiz haqida mazmunan boy, sharqona odatlarimiz singdirilgan, milliy qadriyatlarimizga mos ko‘plab hikoya, rivoyat, nasihatnomalar berilgan. Jumladan, 4-sinf „Odobnoma“ darsligining „**So‘zlashuv odobi**“ bo‘limida „**Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz**“ mavzusida shunday misralar bor:

Til odobi nima?

Har bir inson bir-biri bilan yakka holda yoki jamoat joylarida muloqat va muomalada bo‘lganda quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

O‘ylab, aql bilan so‘zlash, bema’no so‘zni aytmasslik, ochiq chehra va xushmuomalalik bilan muloyim so‘zlash. Aftini burishtirmasslik, hazil va kesatishlardan o‘zini tiyishi, suhbatdoshlar so‘ziga aralashmasslik, sergaplik bilan ezmalik qilish, baqirib gapirish, so‘kinmasslik kerak.”

„**Yaxshilik ham, yomonlik ham o‘zingdan**“ matnida „Xalqimiz orasida o‘z muomalasi bilan odamlarga malham bo‘luvchi insonlar juda ko‘p.

Yaxshilarning suhbatida jon rohat,

So‘zlari-dard-u alamning ofati.

Shirin so‘z odamlar qatori badfe‘l qo‘pol, dilozorlar ham uchraydi. Ular o‘z dilozorliklari, nodon, bema’no so‘zlari bilan inson degan yuksak nomga dog‘

tushuradilar. Ahmad Yugnakiy shunday degan edilar: „tili bo‘sh, zahar kishining aqli yetuk bo‘ladimi? Til va so‘z ko‘p kishilarning boshini yedi. So‘zni uqib so‘zla, shoshib gapirma..

Bir dono kishi o‘g‘liga aytdi:

O‘g‘lim, haddan ortiq hazildan saqlan, qadr-qimmating ketadi, hudabehudaga qichqirib kula berma, savlating, ulug‘vorligingni yo‘qotasan. O‘zingdan kattalar bilan hazillashma, ularni g‘azabga keltirasan, kichiklar bilan hazillashsang, ular seni mensimay qo‘yadilar.” kabi so‘zlar orqali o‘quvchilar odob-ahloq qoidalariga rioya qilishga chaqiriladi.

Muloqotlar sarmazmun bo‘lsa...

Har bir o‘qituvchining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo‘ladi. Muomalaning asosiy vositasi-tildir. Xalqimizda shunday naql bor: „Bola-shirin so‘zning gadosi”. Shunday ekan, o‘qituvchi momala jarayonida juda ehtiyotkor bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiliuvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: „Shirin so‘z-ko‘ngillar uchun bamisoli asaldir”.

Shuning uchun ham o‘qituvchi har doim nutq ma‘daniyatiga qattiq e‘tibor berishi, o‘zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna sifatida namoyon etishi muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining faoliyati faqat darslarini o‘tish bilan cheklanmaydi, uning vazifasiga „Ifodali o‘qish” to‘garagi, „Yosh adabiyotchilar” klublarini tashkil etish kechalari hamda tanlovlarni tayyorlash va o‘tkazish, o‘quvchuilarning nutq madaniyatini nazorat qilish, badiiy adabiyotlarni o‘qish va ularni uyushtirish, bolalar va qo‘g‘irchoq teatri ishini yo‘lga qo‘yish kabi tadbirlar ham kiradi. Kattalarga-ota-onalar, o‘qituvchilar va yetakchilarga nutq madaniyati haqida bilimlar berish ham shular jumlasidandir.

Nutq madaniyatini shakllantirish ishlari o‘quvchilarga, maktab jamoalariga, ota-onalarga, jamoatchilikka o‘zining nutq, muloqot madaniyati bilan ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir. Bu ishlar faqat dars faoliyatida (she’r aytishda, ifodali o‘qishda) pedagogik mahoratni egallashgina emas, balki o‘quvchilarning nutq faoliyatini boshqara olishini ham taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z fanini sevishi, unga ishtiyoq bilan yondashishi,

o'quvchilarni yaxshi ko'rishi, nutq madaniyati vositalari bilan o'qitish va tarbiyalashga qiziqishi lozim. Bulardan tashqari u o'z mahoratini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun pedagoglik, artistlik va ijrochilik qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi yaxshi pedagog bo'lishi, o'z ishini hamsevadigan barkamol o'qituvchi ekanini ko'rsatishi mumkin.

O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar me'daga tegib ketar darajada bo'lmasligi, o'quvchi sezmaydigan yo'sinda doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak. O'qituvchi o'quvchining nimalarga qiziqishi, nimalarni o'qishi va yaxshi ko'rishini, uydagi sharoiti, oilasidagi munosabatlari va hokazolarni bilishi lozim. Mana shularni bilib olish maqsadida o'tkaziladigan suhbatlar beixtiyor boshlanishi va qiziqarli hamda ishonarli tarzda borishi, suhbatlar natijasida o'quvchi aytilayotgan narsalarga o'qituvchi haqiqatan qiziqayotganini, suhbatlarni faqat o'zining majburiyatlari sifatida o'tkazmayotganini tushunib yetishi lozim. O'quvchilar bilan (yakka tartibda yoki jamoa holida) o'tkaziladigan savol-javoblar va qisqa suhbatlar paytida har xil mavzular, masalan, dunyoqarashni va axloqiy-estetik fazilatlarni, estetik did, mushohada va baholashni, mashg'ulotlarga qiziqishni, mehnat ko'nikmalari va xarakterning ayrim xislatlarini tarbiyalash bo'yicha fikr almashish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda birinchi sinfdan boshlab, so'zlarning ma'ni-mazmuni va ularning rang-barangligi, ularni nima maqsadda va qanday holatlarda ishlatish lozimligini sodda qilib o'quvchilarga tushuntirish, hamda, ushbu so'zni ishlatishda mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish zarurligini uqdirish lozim.

Shuni aytish kerakki, yuksak sezgirlikka ega bo'lgan o'qituvchi bolalarning kayfiyati, noxushligini darrov fahmlaydi.

Bola ahvolini tushunish, unga hamdard bo'lish, kerak bo'lsa, madad berish kerak bo'ladi. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida, avvalo, to'g'ri so'z bo'lishi, ishlarini adolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi yaqinlikni oshiradi. Chunki nutq madaniyati insonlar munosabatini baholovchi muhim mezondir.

Yaxshi soʻz- jon ozigʻi

Shirin va yaxshi soʻzlar bamisoli oqib turgan zilol suvga oʻxshaydi. Zilol suv qayerga oqib borsa, u yerda anvoyi chechaklar unib chiqadi.

Ha, darhaqiqat insonning tili shirin boʻlsa, uni kattayu kichik hurmat qiladi, gapiga quloq soladi. Shirin tillilik insonni baxtu saodatga eltadi. Kishining qalbiga, dilu joniga maʼnaviy ozuqa beradi. Shuning uchun shirinsuxanlikka yoshlikdanoq oʻrganish kerak. Shirin soʻz ham, yomon, bemaza soʻz ham bir ogʻizdan chiqadi. Ana oʻsha ogʻizni shirin soʻzlikka moyil qilish lozim.

Dono xalqimiz “Shirin soʻz-jon ozigʻi”, “Shirin taoming boʻlmasa ham, shirin kaloming boʻlsin”, -deb bejiz aytmagan. Bu naql, ibratli soʻzlarda olam-olam maʼno yotadi.

Soʻz orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, soʻzlash madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, naslu nasabi, ota-onasi va ustozining bergan taʼlim-tarbiyasi namoyon boʻladi. Insonning yashashi uchun suv bilan havo qanday zarur boʻlsa, uning maʼnaviy kamol topishida shirinsuxanlik shunchalik zarurdir. Shuning uchun ham insonlar yoshlikdan shirinsoʻzlikka, kam gapirib, koʻp oʻylashga oʻrganishlari, bir ogʻiz soʻzning ulkan qudrati buyuk ekanligini tushunishlari lozim.

Qadim –qadimdan maʼlumki, bir ogʻiz shirin soʻz bilan murodga yetganlar, bir ogʻiz achchiq soʻz bilan boshi ketganlar bor.

Dono ota-bobolarimiz shirinsoʻzlik, oʻrinli soʻzlovchilar haqida shunday deydilar: “Oʻz vaqtida soʻzlab, fursatni gʻanimat ” bilgan , oʻrinsiz soʻzdan saqlanib, salomat yurgan kishiga Tangri rahmu shafqat qiladi”. Yoki: “Tilini tuzatgan kishiga Tangrining rahmati boʻlsin” kabi.

Shirinsuxanlik, yaxshi soʻz inson his-tuygʻulariga mayinlik, qalbiga orom bagʻishlaydi. Shirinsoʻzlik kishilarga hamisha xushnudlik, obroʻ-eʼtibor, baxt-saodat, huzur-halovat, uzoq umr ato etadi. Shuning uchun ham donishmandlar “Shirin soʻz-jon ozigʻi” deyishgan. Shirin soʻz kishi oʻz soʻzi, iborasini oʻzgalar dili, qalbiga ozor bermaydigan qilib xushodoblik bilan ifoda etadi. Ayni vaqtda u oʻz odobini, xulqini namoyon etadi.

“Yaxshi so‘z –jon ozig‘i” deyilganda avvalo, bilimdon, o‘quvchi kishilarning so‘zlash odobi tushuniladi.

Bilimlar asosida kishilar orasidagi o‘zaro muloqot, bir-biriga hurmat-e’tibor bilan muomala, u yoki bu kishining ta’sirchan so‘zi yotadi.

Ey farzand, bir og‘iz shirin so‘z o‘sal yotganni turg‘azadi, yomonni yaxshi yo‘lga soladi, eng og‘ir damlarda ham kishining hayotga umid bilan boqishga undaydi.

Tarbiyashunos bir dono til odobi haqida so‘zlab: “...rost va to‘g‘ri, qisqa va mazmunli gapirishni maqtab, mahmadonolik va laqmalikni, xususan, o‘rinsiz va yolg‘on so‘zlashni qattiq qoralabdi. Tiliga ehtiyotsiz kishi o‘z boshiga musibat ham keltirishi mumkin, ya’ni:

Qora bosh yog‘isi qizil til turur (Qizil til qora boshning dushmanidir) ” debdi.

O‘zbek xalqi “Yaxshining so‘zi-qaymoq, yomonning so‘zi-to‘qmoq”, “Shirin so‘z-shakardan shirin”, “Yaxshi so‘z-jon ozig‘i, yomon so‘z-bosh qozig‘i” kabi maqollarni yaratgan. Donolarning donosi Alisher Navoiy xushfe’llik, shirin so‘zlilikni ulug‘laydi. U yoshlarga nasihat qilib, shirin so‘zlilik el ichra hurmatni oshirishini, qattiq, yomon so‘z esa xalq ko‘ngliga qattiq tegib, beobro‘ qilishini ta’kidlaydi:

“Har kishiki chuchuk so‘z elga izhor aylar,

Har nechaki ag‘yor durur, yor aydar ”

Sir saqlash ham odobdandir. Saqlanmagan so‘z o‘limga mahkum qilishi mumkin.

Ko‘ngil sirin asra, chiqarma tilga,

Chiqishi, cho‘zilgan o‘ninchi yilga

So‘zlar esa misoli yerga sochilgan urug‘ doni. Agar og‘izdan chiqqudek bo‘lsa, ularni bittalab terib bo‘lmaydi. El-yurt, xalq eshitgach, u so‘zlarni pardaga o‘rab bo‘lmaydi.

So‘z qattig‘i el ko‘nglini ozor aylar,

Yumshog‘i ko‘ngullarni giriftor aylar”.-

Deb aytgan ekan Alisher Navoiy. Ustozlar yoshlarga nasihat qilib, shirinsuxanlik, rostgo‘ylik, o‘ylab gapirish, boshqalarning ham fikrini ko‘proq eshitish aqllilikdan dalolat berishini aytadi:

“Tilingni betinim qilma so‘zga band,
Tinglashga qulog‘ing shaylagil har choq”

Demak, og‘ziga kelgan so‘zni demasdan, “Yetti o‘lchab bir kes” qabilida ish tutish lozim.

Shunisi qiziqarlilik, so‘z kishi tanasiga turlicha ta’sir etadi. Inson har doim navqiron, bardam bo‘lishi uchun boshqa odamlarni ranjitmasligi, dilini vayron qilmasligi hamda o‘zi ham xushtabiat bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham halqimizda “Xayru ehsoni bilan mushkulni oson qilmasa ham, shirin so‘zi bilan ko‘ngilni tog‘dek ko‘taradi ”, degan ibora ishlatiladi.

Har bir inson bamaylixtir, ishonarli, vazmin tarzda erkin va tabiiy gapirishi kerak. Yaxshi so‘zlarda, xushmuomalalikda boshqalarga bo‘lgan hurmat-e’tibor va mehribonlik ifodalanadi.

Agar tilga e’tibor bermasa uni noo‘rin qo‘llasa, odam boshining yorilishi hech gap emas. Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Bularning biri xushxulq, ikinchisi ezgu so‘zdir. Yer yuzida insondan qoladigan meros-yaxshi so‘zdir. Uning o‘zi olamdan o‘tib ketadi, shirin so‘zi esa mangu qoladi.

“ Yaxshi so‘z-jon ozig‘i, yomon so‘z-bosh qozig‘i”, deydi dono xalqimiz. Haqiqatdan ham yaxshi so‘z, iliq muomala-munosabat kishilar o‘rtasida mehr-oqibat, do‘stlik-birodarlik rishtalarini mustahkamlaydi. O‘z o‘rnida aytilgan yaxshi so‘z insonlarni ulkan ishlar qilishga, jasoratlar ko‘rsatishga undabgina qolmay, unda mavjud bo‘lgan eng yaxshi fazilatlarni ham yuzaga chiqaradi. Muomala-munosabat tufayli insonning qanday oilada tarbiya topgani, ota-onasi, ustoz kim ekanligi ayon bo‘ladi.

“Xamsa”ning eng katta va oxirgi dostoni-., Saddi Iskandariy”da ma’rifatparvar shoir muomalaning, ya’ni, so‘zning o‘z o‘rni, me’yori, darajasi haqida: „So‘z o‘z borlig‘i bilan

olaning hamma burchagiga yetib boruvchi, o'z sharafi bilan esa odamni eng yuksak martabaga ko'targuvchidir. Agar ma'noli so'z bo'lmasa, ichida gavhari yo'q sadaf singari, insonning hech qanday obro' va e'tibori yo'qdir". Yoki: „So'z-charxi falakning ko'ksida durdona bo'lgani kabi dengiz va undagi gavharlarni ham o'z mo'jizakorligi bilan hayratlantiruvchidir". Yoki: „Bir bilimdon odamning aytishicha, ilonni avrab sehrlaganda u o'ziga o'zi o'ralib, bog'lanib qolib, kishiga ziyon-zahmat yetkaza olmas ekan. Aqlli odamlar ilon tushunadigan til bilan unga xushomad aylab, uni avrab, o'zlariga rom qilsalar kerak.

Chunki boshdan oyoq chuchuk so'z va yaxshi muomala har qanday asov jonivorni ham kishiga bo'ysundiradi-ku!" degan fikrlarni bayon qiladi.

Yaxshi so'z-yaxshi-da!

Maktabdan kelib Gulnor
O'tirdi choy ichgani.
Dasturxonda non, choy bor,
Ammo piyola qani?

Ukasiga qarab u
-“Piyolani keltir”, der.
Ukasi-chi, beparvo,
Nonga qandni qo'shib yer.

Gulnor o'ylab, der ekan:
-Olakelgin, ukajon!
„Xo'p, opa", der ukasi
Yugurdi oshxona tomon.

Oila-mahalla –maktab hamjihatligi.

Oila jamiyatimizning bosh bo'g'ini ekanini biz juda yaxshi anglaymiz. Mana shu go'shada tarbiyaning ilk ildizlari ona suti, bobolar o'giti bilan murg'ak go'dakning qon-qoniga singadi. Eng yaxshi ezgu amallar oila kattalari tomonidan uning qalbiga, yuragiga muhrlanadi.

Bu o'rinda oilada ota-onaning o'zaro namunaviy munosabati va hamjihatligi farzandlariga berayotgan tarbiyasining havas qiladigan darajadaligi barkamol xislatlarni o'zida mujassam etgan avlodlarni kamol topishida muhim ro'l o'ynaydi.

Oilamizda ham shirin so'z, yaxshi muomala asosiga qurilgan tarbiya farzandlar kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada buyuk Yo'l boshchimiz Islom Karimovning „Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asaridagi: „...men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asaridagi qahramonlarning o'zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham „siz”lab gaprishi misolida, ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik e'tibor berganiga ishonch hosil qilaman”, degan jumllarini keltirish kifoya. Demakki, yaxshi so'z, yaxshi muomala kishiga obro'-e'tibor, baxt-saodat, huzur halovat keltirish bilan bir qatorda o'sha insonning oilasi ma'naviyatini ham belgilab berar ekan

Mavzu: Suhbat odobi

Fanning nomi: O'qish 2-sinf,

Mavzu: “Suhbat odobi”

Mavzu: Suhbat odobi
Mavzuga doir tayanch tushuncha va iboralar:muomala,tilga e'tibor,me'yor.
Mavzuning qisqacha ta'rifi: Oz so'zla-soz so'zla
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi
<u>METOD:</u> aqliy hujum, klaster
<u>SHakl:</u> suhbat, kichik guruhlar bilan ishlash
<u>Jihoz:</u> rasm(Teatr, avtobus,oila maktab), kompyuter, darslik, tarqatma materiallar
<u>Nazorat:</u> : o'z-o'zini nazorat qilish, guruh ichida nazorat

<u>Baholash:</u> o‘z – o‘zini baholash, guruh faoliyatini baholash			
Darsning maqsad va vazifalari:			
Maqsadlar: Ta’limiy: suhbatlashish odobi haqida tushuncha berish Tarbiyaviy: O‘quvchilarni muomala madaniyatiga amal qilishga undash Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.			
Kutilayotgan natija:			
Dars yakunida o‘quvchilar: Suhbatlashish odobi haqida bilimga ega bo‘ladilar. Ko‘chada va ko‘pchilik davrasida suhbatlashish ko‘nikmalarini shakllantirish,			
Dars jarayoni va uning bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich tashkiliy qism	O‘quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish, davomatni aniqlash.		2 min.
2-bosqich	O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish, guruhlarni nomlash		3 min
3-bosqich Darsning borishi	O‘tilgan mavzuni so‘rash Yangi mavzuni tushuntirish		5min 5 min
4-bosqich Mustahkamlash	Guruhlarda ishlash	Mustaqil ish	20 min
5-bosqich Baholash Dars yakuni	Guruhni baholash		5 min 2 min

6-bosqich Uyga vazifa			3 Min
Kutiladigan natijalar:	O‘qituvchi	O‘quvchilar	
	• Yangi nazariy bilimlar beradi. • Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. • Qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumot to‘plashga yo‘naltiradi.	• Yangi nazariy bilimlar olishadi. • Axborot izlash, to‘plash va foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi. • O‘z-o‘zini baholaydi hamda o‘zgalar faoliyatini tahlil qiladi. • Hamkorlik ko‘nikmasi shakllanadi	
Kelgusi rejalar:	• Mavzuga oid qo‘shimcha materiallar to‘playdi, O‘quvchilarni darsda, ko‘chada, jamoat joylarida o‘zini tutishi, suhbatlashish odobini kuzatib boradi.	• Mavzuni takroran o‘qib chiqadi va bilimlarini mustahkamlaydi. Mavzuni hayot bilan bog‘laydi.	

Darsning maqsadi: So‘zlay olish madaniyati, so‘z qadri ma’nosi bilan o‘lchanishi, tiniq ravon bo‘lishi, avvalo o‘ylash, so‘ng so‘zlash kerakligi haqida tushuncha berish. Odobli bola bo‘lib oz va soz so‘zlash, so‘ng gapirishga o‘rganishi ta’kidlanadi.

II.Darsning jihozi: So‘z haqida maqol va rasmlar, hikmatlar.

III.Darsning borishi: 1-sinfdagi „Odobnoma” darsidan olingan muomala odobiga doir o‘quvchilarning fikrlari umumlashtiriladi.

IV.Yangi mavzu: „Oz so‘zla-soz so‘zla”

Dars Abduholiq G‘ijduvoniyni „Oz ye, oz so‘zla, oz uxla” hikmatining bayoni bilan boshlanadi. Bu hikmatdagi asosiy mazmun oz, ma’noli va ibo bilan so‘zlash hamda salomatlik uchun oz yeyish va uxlashni tushuntirish.

Soʻzni isboti bilan gapir.

(Ibn Sino)

Ota soʻzi pichoq,

Ona soʻzi oʻchoq.

(Xalq soʻzi).

Oʻqituvchi quyidagi savollar orqali soʻzlash odobini tushuntiradi:

-Soʻzlashganda qanday axloq-odob qoidalariga rioya qilish lozim?

-“Yaxshi odam”, “xushmuomala”, “shirinsoʻz” degan soʻzlar maʼnosi nimada?

-“Oz soʻzla, soz soʻzla” hikmatining maʼnosi nimada?





Oʻqituvchi javob olgach, quyidagicha suhbat oʻtkazadi:

Kishilarning oʻzaro muomal qilishlarida shirin soʻzning xosiyati va uning ahamiyatini tushuntirish. Kishilar bir-birlari bilan muomala qilganda, doimo shirinsuxanlik bilan bir-birlariga murojaat qilganda “kechirasiz”, “mumkinmi”, “rahmat”, “salomat boʻling”, “koʻp yashang”, “barakalla” “omon boʻling” “xoʻp boʻladi”, “jonim bilan” kabi shirin soʻzlardan foydalanishlari tushuntiriladi.

Achchiq soʻz-zahar, yaʼni soʻkishish, qoʻpol gapirish, “ha-e”, “boring kerakmas”, “bormayman”, “yoʻqoling”, “shu yetmay turuvdi” kabi achchiq soʻzlarni oʻz nutqlarida qoʻllamasliklari taʼkidlanadi.

Guruhlarga topshiriq:

Ko'chada, avtobusda, teatrdagi, maktabda so'zlashish odobini klaster usulida ta'riflash.



Ijodiy ish: So'z haqidagi maqollarni topish va yod olish

2-darsning mavzusi: Yaxshi so'zning qudrati.

I. Darsning maqsadi: Yaxshi so'zning foydasini tushuntirish. Yomon so'zlash, beodoblik, janjalkashlik yomon odat ekanligini bilib olish.

Jamoat joylarida o'zini tuta bilishga odatlantirish.

II.Darsning jihozi: Yaxshi o'quvchilar va yomon bolalar tasvirlangan rasmlar, "Odobnoma" darsligi.

III.Darsning borishi: O'tilgan dars yuzasidan savol-javob bilan avvalgi darsni yakunlash.

Dam olish daqiqalarini o'tkazish. So'ngra o'qituvchi bugungi dars mavzusini tushuntiradi.

“Yaxshi so‘zning qudrati”

Rasm asosida suhbat o'tkaziladi. Matn o'qitilib, savol-javob asosida mavzu o'rgatiladi.

Savollar:

1. Siz jamoat joylarida o'zingizni qanday tutasiz?
2. Qanday odatlarni yomon deb hisoblaysiz?
3. “Oz so‘zla, soz so‘zla” ni qanday tushunasiz?
4. Yaxshi so‘zga bag‘ishlangan qanday maqollarni bilasiz?

“Yaxshi so‘z yaxshida” (T.Rahimova) she’ri yuzasidan savol-javob o'tkazish ham mumkin. So'ngra o'quvchilarga xayoliy suhbat o'tkazish topshiriladi. Qani bolalar! Bir “Odobli bola” bilan suhbatlashing-chi? O'quvchilarning hayoliy hikoyalaridan 1-2 o'quvchi gapirtirib eshutiladi. Shu o'rinda o'quvchilarga P.Mo‘minning “Yaxshi bola” qo‘shig‘i o'rgatilsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Yaxshi bola”

Hamma joyga yarashadi	Yashayversin hamma joyda
Yaxshi bola, yaxshi bola.	Yaxshi bola, yaxshi bola
Uy ishiga qarashadi	Keltiradi elga foyda
Yaxshi bola, yaxshi bola.	Yaxshi bola, yaxshi bola.

O'ynab yurib quvonadi	O'rtoqlari, sheriklari,
O'z-o'zidan, o'z-o'zidan	Ko'p bo'ladi, ko'p bo'ladi.
Yaxshiligi bilinadi	Deydi doim, xo'p bo'ladi
Yuz-ko'zidan yuz-ko'ziadn	Xo'p bo'ladi, xo'p bo'ladi.

So'ngra o'quvchilarning bilimi baholanadi.

Ijodiy ish: S. Barnayevning “Shirin bola” she’rini yod olib, unga amal qilish.

3-darsning mavzusi: Telefonda gaplashish odobi.

I.Darsning maqsadi: Telefon insonning uzog‘ini yaqin qiluvchi vosita. Zarur bo‘lgan paytda bir-birining hol-ahvolidan xabar oladi. Shunda shirin so‘zli bo‘lish zarurligini uqtiradi. Bular: labbay, marhamat, xo‘p bo‘ladi, tashakkur, rahmat.

II.Dars jihozi: Turli telefon apparatlari.

III.Darsning borishi: Yaxshi so‘z qudrati nimada ekanligini o‘quvchilardan so‘rash. Berilgan ijodiy ish yuzasidan suhbat o‘tkazish.

IV. Yangi mavzu: “Telefonda gaplashish odobi”

Telefonda so‘zlashganda “Assalomu alaykum”, “Rahmat”, “Mumkinmi”, “Kechiring”, “Omon bo‘ling”, “Xo‘p bo‘ladi” kabi so‘zlarni ishlatish odobdan ekanligi. Ayrim hollarda “Kim kerak”, “Nima ishingiz bor?”, “Bo‘ldi, yo‘q” kabi so‘zlarni ishlatish odobsizlik ekanligini tushuntirish. Qani bolalar, xayolan “Telefon, telefon o‘ynaymiz”. Kim sehrli so‘zlarni bilar ekan?-deya o‘qituvchi o‘quvchilarni “Telefon-telefon” o‘yiniga jalb etadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini umumlashtirar ekan, mobil telefonlarning inson salomatligi uchun zararli tomonlarini ham tushuntirib o‘tishi zarur.

Baholash: O‘quvchilar darsdagi faolliligiga, nutqining ravonligiga ko‘ra baholanadi.

Ijodiy ish: Telefonda gaplashish odobi haqida hikoya tuzish.

Hikmatlar

- O‘qituvchi obro‘ topishi uchun chuqur bilim egallab, aqlu odob kasb etib, bir umr halol riyozat chekmog‘i lozim, lekin obro‘sidan ayrilish uchun bitta aqlsiz harakat kifoya.
- O‘qituvchining obro‘si va mavqei faqat uning o‘z shaxsi uchungina emas, balki yosh avlodning aqliy va axloqiy kamoloti uchun ham zarur.
- O‘qituvchi qisqa ifodada ko‘p fikr ayta bilish mahoratiga ega bo‘lishi lozim.
- Aziz o‘qituvchi, sen darsni oldi-qochdi gaplar bilan o‘tkazsang, ulg‘aygan o‘quvchilat seni vaqt o‘g‘risi sifatida eslaydi.

- Shogirdlar hurmatiga sazovor bo'lish uchun, avvalo, ustozlarni samimiy hurmat qilish lozim.
- Dilda kek saqllovchi, g'arazgo'y kishi aslo o'qituvchi bo'lmaydi, bola eng adolatli va sofdil odamlarigina hurmat qiladi.
- Bolani tarbiyalashga farosati yetmagan kishigina uning ustidan shikoyat qiladi.
- O'quvchilarga yillar davomida bilim berib, lekin birortasini ham o'z kasbiga da'vat qila olmagan o'qituvchi-yaxshi o'qituvchi emas.
- O'z ustida ishlashni to'xtatgan o'qituvchi o'qitishni ham to'xtatgani ma'qul.
- O'z fanini chuqur bilmaslik, o'quvchilar bilimini notog'ri baholash, o'qituvchini bebro' qiladi.
- Ustozlarningning ulug'vor ishlarini ijodiy rivojlantira olsang, sen baxtiyorsan.
- Har qanday buyuk olim ham bilim cho'qqisiga alifbo zinapoyalaridan chiqib boradi.
- Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri- o'quvchiga hurmatda
- Bolalarga hurmat- ularni erkalatib qo'yish, aytganlariga so'zsiz yuraverish emas. Bolalar o'z tarbiyaviy talablarini hayotga qati'yat bilan tatbiq etuvchi o'qituvchilarni hurmat qiladilar.
- Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun nimani o'qitsang- o'shanga, kimni o'qitsang- o'shalarga mehr qo'ymog'ing zarur.
- Tarbiyachi mansabdor to'ra emas, agar u mansabdor to'ra bo'lsa, demak tarbiyachi emas.
- Qayerdagi bo'lmasin, so'z odamlar o'rtasidagi vositachilik xizmatini o'tar ekan, ayniqsa ta'lim sohasida ortiqcha gapirish ham, gapni to'mtoq tugatish ham nomaqbuldir.
 - So'z degan narsa o'qituvchilarga o'z fikrlarining bayoni uchun emas, balki boshqalar tafakkurini uyg'otish uchun berilgan.
 - Maktabning maqsadi, tarbiya va faqat tarbiyadir.
- Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi.
- Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga muayyan bilim berish bilangina emas, balki odobi, turmush tarzi, har kungi voqealarga munosabati bilan ham ta'sir ko'rsatadi.
- Pand- o'g'itlar har qancha yaxshi bo'lmasin, agar ular o'quvchi ko'z o'ngida uni qurshab turgan butun voqelikni izohlab bermasa, misollar bilan tasdiqlanmasa, ular g'irt foydasiz va

hattoki zararli bo'lib chiqadi.

- Yaxshi tarbiya har qanday nodon kishini ham odam qatoriga qo'shadi.
- O'qitish, ikki barobar o'qish demakdir.
- Yomon tarbiya ko'rgan odamni qayta tarbiyalashdan og'irroq narsa yo'q.
- O'qituvchi inson ruhining injeneridir.
- O'qituvchining butun faxri o'quvchilarida, o'zi sochgan urug'larning o'sishidadir.
- Yaxshi o'qituvchilar yaxshi shorlarni yetishtiradi.
- Haq yo'lida kim senga harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Donolar suhbatlashish mahorati haqida.

Birdan-bir haqiqiy ne'mat odamlarning bir-biri bilan muloqotidir.

A. Sent-Ekzyuperi.

Odamning so'zidan faqat uning qanday ko'rinish niyatidaligini bilish mumkin, aslida uning qandayligini so'zlarni ifodalashdagi imo-ishoralaridan, yuz bujmaytirishlaridan, binobarin, uning og'rinib qilgan harakatlaridan ham bilib olish mumkin.

F. Shiller

Odamlar bilan uning aqliga monand gaplash.

Sa'diy

Dono bilan so'zlashganda kamgap bo'l

Katta Katon

Aksari yoshlar o'zlarini dag'al va qo'pol tuta turib, yana buni tabiiy hol deb biladilar.

F. Laroshfuko

Qo'pollik qilish o'z qadr-qimmatini yerga urish demakdir.

N. G. Chernishevskiy

Beodoblik-johillik urug'i.

S. Batler

Qo'pollik nafrat tug'diradi.

F. Bekon

Qo‘rs va qo‘pol muomala ro‘paramizdagi barcha eshik va barcha qalblarni yopib qo‘yadi.

S. Smayls

Til tig‘i bilan gunohsiz kishiga ozor berish- sog‘ qon tomirga nishtar urib nobud qilishdir.
hatto ulardan ba‘zi aqlli odamlar ham istisno emas.

J. Labryuyer

Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har nechaki ag‘yor durur yor aylar,
So‘z qattig‘i el ko‘nglini ozor aylar,
Yumshog‘i ko‘ngillarni giriftor aylar.

A.Navoiy

Hech kimga so‘z bermay suhbat mavzuini ulab ketaverish shaxsiyatparastlikning eng jo‘n
ko‘rinishidir, uning qoralanishi to‘g‘ri.

G. Spense

Qiziqqonlik, qo‘pollik, betgachoparlik- shunday nuqsonlar- shunday nuqsonlarki, hatto
ulardan ba‘zi aqlli odamlar ham mustasno emas.

J.Labryuyer

Tokim birorta so‘z deguncha inson,
Aybi-la hunari barchadan pinhon.

Sa‘diy

Suhbatda vazminlik va o‘rinli gapirish gapga chechanlikdan yuqori turadi.

F. Bekon

Qanday so‘z aytsang, javobiga ham o‘shani eshitasan.

Gomer

Shaxsiy baxtga erishish uchun ish bilan birga so‘zga e‘tibor berish katta ahamiyatga ega.

N. V. Shelgunov

Yaxshi suhbatdosh bo'lishning faqat bitta usuli bor, bu tinglay bilishdir.

K. Morli

Odam qanchalik kamgap bo'lsa, shuncha yutadi: kishilar uning aqlli ekani haqida o'ylay boshlaydilar, buning ustiga asli u o'zi aqlli bo'lsa hamma uning nihoyatda zukko odamligiga ishonch hosil qiladi.

J. Labryuyer

Kamgaplik va kamtarinlik suhbatda g'oyat foydali fazilatdir.

M. Monten

Aqlli javob olmoqchi bo'lsang- aqlli savol ber.

I.Gyote

Aqlli bo'lishni istasang, mulohaza qilib so'rashni, diqqat bilan tinglashni, muloyim javob qaytarishni va boshqa aytadigan gaping bo'lmasa, indamaslikni o'rgan.

I.Lafater

Agar odamlar faqat bilgan narsalarini gapirganlarida qanchalar jimjitlik hukm surishini bir tasavvur qilib ko'ring.

G. Chapek

Qo'pollikni har qanday bahona ham oqlay olmaydi.

T. G.Shevchenko

Kechirim so'raganda ham haqorat qilgandagidek oshirib yubormang.

V. Shekspir

Xushmuomalalik ham agar pisanda qilinsa, haqoratga aylanadi.

A. Grasian

Aksari yoshlar o'zlarini dag'al va qo'pol tuta turib, buni yana tabiiy hol deb biladilar.

F.Laroshfuko

Qo'pollik qilish o'z qadr-qimmatini yerga urishdir.

N. G. Chernishevskiy

Shirin so'zli shilgay dushman po'stini

Dag'al so'zli dushman qilar do'stini

Sa'diy

So'z- shamol, haqoratli so'z esa yelvizak kabi zararlidir.

V. Shekspir

Til tig'i bilan gunohsiz kishiga ozor berish-sog' qon tomirga nishtar urib nobud qilishdir.

A.Navoiy

Donishmandlar hikmati

Luqmon hakim o'g'liga nasihat qilib aytdi:

-Aziz, o'g'lim! Bir odam senga tili burro ekani bilan maqtansa, sen kam so'zli ekaning va kerak bo'lgan joyda sukut qilishing bilan maqtan. Aqli komil bo'lgan kishi qisqa va ma'noli so'zlaydi. O'g'lim, sen so'zlash payti va sharoitini topib, oz va kerakli so'zlarni so'zla, mahmadonalik qilma.

Qalblar uzoqlashmasin.

Bir kuni muallim o'quvchilaridan so'radi:

-Odamlar janjallashganida nega ovozi baland ko'taradi?

Asabi buzilgani uchun, -deb javob beribdi bir o'quvchi.

-To'g'ri,-dedi muallim. –Ammo yonma-yon turganda baqirishga na hojat? Bu holatda sekin gaplashsa ham bo'ladi-ku, shunday emasmi?

Biroz sukunatdan keyin o'quvchilar bergan har xil javoblarning birortasi muallimni qoniqtirmadi. Oxiri o'zi bunday dedi:

-Odamlar bir-biridan norozi bo'lib urishayotgan paytlarida qalblari uzoqlashadi. O'rtada bo'sh qolgan masofani to'ldirish va gapini bir-biriga eshittirish uchun baqirib gapirishadi. Jahl otiga minib olib, pastga tushgilari kelmaydi. Ammo bir-birini yoqtirib, yaxshi ko'rib qolganlari aslo baqirib gaplashmaydi. Chunki bunda qalblar orasidagi masofa juda yaqin bo'ladi. Bir-birini qattiq sevganlarga pichirlab gaplashish ham yetarli. Hatto ba'zan bu ham kerak bo'lmay qoladi: ular bir-birini so'zsiz tushunadi. Chunki orada hech qanday bo'sh joy qolmaydi. O'zaro tortishayotgan paytlaringda qalblaringiz uzoqlashishiga yo'l qo'ymang. Odamlar orasidagi masofa uzoqlashaversa, oxiri orqaga yo'l topib bo'lmay qoladi.

Umr judayam qisqa. Dushmanlik va janjallarga sarflangandan ko‘ra, undan unumli foydalanishimiz muhimroq. Ayniqsa, oila davrasida...

Hamma havas qilsin.

Ota-boblarimiz: “Og‘zingdan chiqqan so‘zni qulog‘ing eshitsin”, -deb juda to‘g‘ri so‘zlaganlar. Nima to‘g‘risida so‘zlashni istasang, avval yaxshi tushunib, o‘ylab, keyin so‘zla. Til- qilichdan o‘tkir, qilichdan yetgan yara tuzaladi, ammo til yarasi tuzalmaydi. Shuning uchun tilni yaramas so‘zalarni so‘zlashdan saqlash kerak.

Bolalar, birovni so‘kishdan, urishdan o‘zingizni saqlang. Urrib, yoki achchiq-achchiq so‘zlar aytib, birovga zarba berib, uning ko‘nglini og‘ritish eng yomon ishdur, buni yaxshi tushuning. Odobli, tarbiyali bo‘ling. Shunda har kim sizni sevadi, hurmatlaydi.

Hikoyat: Karimjonni maktabda hamma sevardi. Chunki u aqlli, odobli, tarbiyali va tirishqoq bola edi. Maktab o‘qituvchilari yalqov va kelishmagan ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalarga: Karimjonga o‘xshash odobli, tarbiyali bo‘linglar, undan ibrat olinglar”, deb nasihat qilardilar.

Karimjon ezma emas, oz so‘zlardi, boshqalar so‘zlaganda, so‘zlarni tamom bo‘lgauncha tinglar, oraga so‘z qo‘shmasdi. Ikki kishi so‘zlab turganda, yonlariga borib, ularning so‘zlariga quloq solib turmasdi. Mabodo undan bir narsani so‘rasalar muloyimlik bilan yaxshi javob berardi.

Bolalar, har biringiz Karimjon kabi odobli, tarbiyali bo‘lishga harakat qiling.

Aziz do‘stim, hurmatda bo‘l ustozingdan o‘zganda ham

Ilming oshib, iqbol kulib, harchand senga boqqanda ham.

Bo‘lma mag‘rur unvonga sen. Allomasiz desalar ham.

Kamtar bo‘ldi allomalar ming qoyadan oshganda ham.

Foydalanilgan adabiyotlar

